

## TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

*Saydullayeva Barchinoy Abduhalil qizi*  
*Andijon davlat universiteti boshlang'ich ta'lim*  
*metodikasi kafedراسi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ekologiya to'g'risidagi fikr mulohazalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatini shakllantirish to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** prinsip, ko'rgazmalilik, tabiiy boyliklar, jonli va jonsiz tabiat, Ta'limiy o'yinlar, ekologik tarbiya, ekologik omillar

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo'yadi. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, avvalo, pedagogika fanining asoschilarini aytib o'tgan fikrlariga asoslanamiz. G'arbning ilg'or pedagoglaridan Komenskiy, -, Bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va ko'rgazmalilikka asoslanishi kerak; - degan edi. Bolalarga tabiat orqali beriladigan bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayr, ta'limiy o'yinlar orqali mustahkamlanib boradi.

Bolalarda ekologiya haqidagi bilimlarini shakllantirish va ularni fikrlarini aniqlashtirish fanga qo'yilgan vazifalardan biridir. Bugungi kundagi global muammolardan suv, iqlimning o'zgarib borishi, tabiatga insonning munosabati va ular haqida tushunchalar berib, tabiat in'om etgan boyliklardan oqilona foydalanish kerakligini ta'kidlab boramiz.

Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik printsiptiga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi zarur.

Masalan: Erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko'm-ko'k tus oldi biz endi bog'cha er maydonchasiga ekin ekishim iz mumkin.

Ilmiy prinsip bolalar yoshiga mos bo'lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Y.A.Komenskiy shunday degan: Oddiydan -murakkabga, yaqindan- uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak. Bu prinsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo'limida o'z aksini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda

bevosita o'zlariga yaqin bo'lgan, atroflarini o'rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga avval bog'chadagi daraxtlar, so'ngra o'rmondagi daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimiz zarur.

Y.A. Komenskiy shunday degan: "Avval sezgilarda bo'lmagan narsa, intellektda ham bo'lmaydi".

Shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida quyidagi ko'rgazmalilik printsiptini asoslab berdi. Ko'rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko'rib idrok etish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidasi hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yula bir necha sezgi organlarini ishga solish lozim. Agar o'rganilayotgan predmetni ko'rish imkoni bo'lmasa, ularning sur'atlari yoki modellariga murojaat qilish lozim. Demak, ko'rgazmalilik bolalarni abstrakt tushunchalarini real anglashga olib keladi.

Entsiklopedik so'zi grekcha so'z bo'lib, barcha fanlarni har tomonlama bilim olish, bilimlar yigindisi manosida qo'llaniladi

Bolalar osmon jismlarini astronomiyadan, o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, voqa, daryo, tog'larning nomlarini geografiyadan; o'simliklar nomlari. ularning o'ziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bo'layotgan voqealar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, echish yo'llari, chora-tadbirlarini topish yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan holda atrof muhit muhofazasini amalga oshirishdir.

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodislardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda.

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzoqlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muhitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi,

tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi - tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta'lim va tarbiya – bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Insonni o'rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go'zalligiga go'zallik qo'shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish - bu ekologik tarbiya maqsadi.

Ekologik ta'lim bugungi kunda ta'lim tizimlari faoliyatini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rasman e'tirof etilgan. Ekologiya hozirgi vaqtda yangi turmush tarzini shakllantirish uchun asosdir. Maktabgacha yoshdagi etakchi faoliyat - bu bolalarning o'yin faoliyati hisoblanadi.. Ko'p yillar davomida ilm-fan maktabgacha yoshdagi bolalik davrida kattalar yordamisiz va hatto ularning harakatlari tufayli boy rivojlanadigan chinakam bolalar faoliyatini qidirmoqda. Bunday faoliyat, zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar eksperimenti bo'lib chiqdi. Shuning uchun eksperimentlar orqali bolalarda kognitiv qiziqishni shakllantirish muammosi muvofiq. Bu o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Bugungi bolalar axborotlashtirish davrida, hayotning tez o'zgarib borayotgan sharoitlari bilan bog'liq holda, insondan nafaqat bilimga ega bo'lish, balki, birinchi navbatda, bu bilimlarni o'zi olish, ishlash qobiliyati talab qilinadigan davrda yashab, tarbiyalanmoqda. Farzandlarimizni izlanuvchan, ochiqko'ngil, atrof-muhitni ozoda saqlaydigan va unda yuzaga keladigan muammolarni hal qila oladigan, mustaqil va ijodiy shaxs sifatida ko'rishni istaymiz. Shu bilan birga ular tabiatning barcha boyliklaridan oqilona foydalanishi va ularni asrab avaylash, tabiatga mehr-muhabbatli bo'lishida ta'lim va tarbiya uzluksiz tarzda olib borilishi kerak

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Doshkolnoe vospitanie" jurnali 1989 №5. 1990 №1, 10. 2001 №4, 5.
2. O.Xasanboeva va boshqalar "Pedagogika tarixi".
3. Qo'llanma. T.. "O'qituvchi" 1997 yil.
4. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O'qituvchi". 1997 yil.



5. J.Tulenov. Qodriyatlar falsafasi.T., "O'qituvchi".1996 yil.
6. E.Y.Yusupov. Falsafa. T., "Sharq".1999 yil.
7. A.K.Munavvarov. "Pedagogika". T., "O'qituvchi".1996 yil.
8. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., "O'qituvchi", 1984yil.
9. I.M.M.Markovskay. Bolalar bogchasida tabiat burchagi. T., "O'qituvchi", 1991 yil.
10. V.A.Dryazgulova "Didakticheskie igri dlya oznakomleniya21. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya bernsh. T., "O'qituvchi". 1995 yil.
11. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil.